Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. (2023). *Geografiya fani bo‘yicha Milliy o‘quv dasturi.* Toshkent.

2.Abduraxmonov B., Isabayeva D. (2026). Инновационная методика проектирования и применения дидактических материалов в географическом образовании. *Экономика и социум*, №2(141), 13 с.

3.Abduraxmonov B.M.,Raximov I. B., Turdaliyev I. E. (2025). Possibilities of integrated use of interactive cartographic applications in the professional and methodological training of geography teachers. *International Scientific Research Journal*, Vol. 6, Issue 5, pp. 209–214.

4.Abduraxmonov B.M.,Raximov I. B. (2025). Geographical education and digitalization: global educational platforms for interactive learning. *Ta’lim va taraqqiyot*, №3, 337–343-b.

5.Abduraxmonov B.M.,Turdaliyev I. E. (2026). *Geografiya ta’limida resurslar va raqamli texnologiyalar.* O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Namangan: NamDU.

6.Abduraxmonov B.M.,Turdaliyev I. E., Raximov I. B. (2025). Состояние проблемы использования современных средств обучения в географическом образовании. *Экономика и социум*, №6(133), 5 с.

GEOGRAFIYA TA’LIMIDA GLOBAL JARAYONLAR VA ULARNI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Sarikulov Mirkomil Olimovich,
Andijon davlat pedagogika instituti
Biologiya va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Zamonaviy dunyoda axborot va texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi, iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi hamda ekologik va geosiyosiy muammolarning tus olishi geografiya ta’limining mazmun va mohiyatini tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda. An’anaviy geografiya ta’limi ko‘pincha statik ma’lumotlarni uzatish, obyekt va hududlarning tavsifiy xarakteristikasini yodlashga yo‘naltirilgan edi. Biroq XXI asr ta’lim paradiagmasi o‘quvchi va talabalardan nafaqat tayyor faktlarni bilishni, balki murakkab va tezkor o‘zgaruvchan global jarayonlarning sabab-oqibat aloqadorligini tahlil qilish, fazoviy fikrlash hamda muammoli vaziyatlarda obyektiv xulosalar chiqarishni talab qilmoqda.*

Kalit so`zlar*: urbanizatsiya, globallashuv, aholi migratsiyasi, global iqtisodiyot, GIS, sanoat klasterlari*

Kirish: XXI asr boshlarida insoniyat rivojlanishining xarakterli xususiyati - global miqyosdagi jarayonlarning kundalik ijtimoiy-iqtisodiy hayotga chuqur singib borishidir: iqlim o‘zgarishi va uning mintaqaviy oqibatlari, tabiiy resurslar taqsimotidagi nomutanosiblik, aholi migratsiyasining kuchayishi, urbanizatsiya, raqamli globallashuv va geosiyosiy o‘zgarishlar shular jumlasidandir. Ushbu jarayonlarning barchasi hudud, makon va tabiat-jamiyat munosabatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli ular tabiiy ravishda geografiya fanining, xususan, uning ta’lim yo‘nalishining predmet doirasiga kiradi. Shu munosabat bilan so‘nggi o‘n yilliklarda pedagogika va metodika fanida «global jarayonlar geografiyasi» tushunchasi shakllanib, u makon-vaqt xususiyatiga ega bo‘lgan, bir qator davlat va mintaqalarni qamrab oluvchi, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik ahamiyatga molik jarayonlarning didaktik jihatdan tizimlashtirilgan yaxlitligini anglatadi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi: Geografiya ta’limi tarixiy taraqqiyotida mintaqaviy-tavsifiy paradigmadan tizimli-jarayonli paradigmaga o‘tish tendensiyasi kuzatiladi. An’anaviy “yangi mintaqaviy geografiya” bahslarida ta’kidlanganidek, hududlarni alohida-alohida tavsiflashdan ko‘ra, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va jarayonlarning dinamikasini tushuntirishga urg‘u kuchaymoqda. Bu o‘z navbatida, An’anaviy ma’ruza-tushuntirish usuliga asoslangan o‘qitish modelining bir qator kognitiv, falsafiy va amaliy jihatdan cheklanganligini yuzaga chiqardi: bilimni passiv qabul qilish ko‘nikma va muhokama qilish, tahlil etish, qaror qabul qilish kabi malakalarni to‘liq shakllantira olmaydi.

Global jarayonlar geografiyasini o‘rganishning zamonaviy metodologik asoslari bir-birini to‘ldiruvchi bir necha yondashuvlar majmuidan iborat. Birinchidan, tizimli-strukturaviy yondashuv global jarayonlarni o‘zaro bog‘liq elementlar (tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy) yig‘indisi sifatida ko‘rib chiqishni talab qiladi. Ikkinchidan, integrativ yondashuv geografiya fanini ekologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik va axborot texnologiyalari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganishni nazarda tutadi. Uchinchidan, kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchida nazariy bilimlarnigina emas, balki ularni real vaziyatda qo‘llay olish qobiliyatini, ya’ni “egallangan bilim, ko‘nikma va munosabatlarni real hayotiy vaziyatda safarbar eta olish qobiliyati”ni shakllantirishga qaratilgan. To‘rtinchidan, muammoli-tadqiqiy yondashuv o‘quvchini tayyor xulosalarni yodlashdan emas, balki muammoni mustaqil aniqlash, faraz qilish va tekshirish jarayoniga jalb etishga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar: Global miqyosdagi ta’lim siyosati darajasida bu yondashuvlar YUNESKO ning «Global fuqarolik ta’limi» kontseptsiyasida o‘z ifodasini topgan. Ushbu hujjatlarga ko‘ra, global fuqarolik ta’limi alohida fan emas, balki geografiya, ijtimoiy fanlar va boshqa predmetlar orqali amalga oshiriladigan «prizma», ya’ni ta’lim mazmunini global nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqish tamoyilidir. Bu yondashuv Barqaror rivojlanish maqsadlarining 4.7-vazifasida ham mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra barcha ta’lim oluvchilar barqaror rivojlanish, inson huquqlari, gender tengligi va tinchlik madaniyatini targ‘ib qiluvchi bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirilishi lozim. Shu bilan birga, tadqiqotchilar GCEDning «glokal» (global+lokal) tabiatini alohida ta’kidlab, mahalliy va global miqyosdagi voqealar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqlikni ko‘rsatib berishning ahamiyatini uqtiradilar, bu esa real voqealardan foydalanish zaruriyatini metodologik jihatdan yanada asoslaydi.

O‘zbekiston Respublikasida geografiya ta’limining me'yoriy-huquqiy va uslubiy asosini Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi tashkil etadi, unda geografik bilimlarning tizimliligi, amaliy yo‘naltirilganligi va zamonaviylik tamoyillari belgilab qo‘yilgan. Milliy metodika fanida geografiya o‘qitish nazariyasi va amaliyoti masalalari H. Vaxobov, R. Qurbonniyazov, G‘.M. Sayfullayev, S.N. Abduvohidov va Z.A. Ganiyev kabi olimlarning o‘quv qo‘llanmalarida, shuningdek rus tilidagi klassik uslubiy manba - L.M. Pancheshnikovaning «Методика обучения географии в средней школе» asarida atroflicha yoritilgan. Biroq mazkur manbalarning aksariyatida geografiya ta’limining umumiy nazariy-uslubiy masalalari yoritilgan bo‘lib, aynan global jarayonlarni jonli, kundalik axborot oqimidagi real voqealar orqali o‘qitish metodikasi alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha chuqur ishlab chiqilmagan.

Global jarayonlarning ta’limiy talqini, shuningdek, “geografik tasavvur”ni rivojlantirish bilan bog‘liq. Talaba dunyoni faqat siyosiy xarita sifatida emas, balki iqlim mintaqalari, resurs havzalari, demografik o‘tish zonalari, urbanizatsiya kamarlari, global transport koridorlari va raqamli infratuzilma tugunlari sifatida ko‘ra boshlaydi. Bu tasavvur real hayotdagi qarorlarni tushunishga yordam beradi: masalan, energiya o‘tishi doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari geografiyasi (quyosh radiatsiyasi, shamol rejimi, suv resurslari) bilan birga, nodir metallar konlari, sanoat klasterlari, elektr tarmoqlarining o‘tkazuvchanligi va siyosiy risklar ham hisobga olinadi; natijada, “yashil iqtisodiyot”ning ham o‘ziga xos geosiyosiy va geoiqtisodiy xaritasi mavjudligi anglashiladi. Shunday qilib,

predmetning xususiyati - real komplekslikni soddalashtirmasdan, uni didaktik jihatdan boshqariladigan modelga aylantirishdir.

1-jadval

Global jarayonlar geografiyasining o‘quv predmeti sifatidagi xususiyatlari va ulardan kelib chiquvchi metodik talablar

№	Predmet xususiyati	Metodik talab	Amaliy yechim
1	Yuqori dinamiklik: ma’lumotlar tez eskiradi	Mazmunni muntazam aktuallashtirish	Ochiq ma’lumotlar bazalari, joriy keyslar banki
2	Muammoviylik: bilim muammo atrofida uyushadi	Muammoli vaziyat orqali o‘qitish	Keys-stadi, muammoli savol
3	Makoniylik: har bir hodisa joyga bog‘liq	Xarita va GAT bilan ishlash	Interaktiv xaritalar, kartogramma
4	Ko‘p talqinlilik: bahsli masalalar ko‘p	Ko‘p perspektivali yondashuv	Debat, rol o‘yini, akytorlar tahlili
5	Integrativlik: fanlararo chegaralar yumshoq	Fanlararo bog‘lanishlar	Iqtisod, ekologiya, huquq bilan integratsiya
6	Ma’lumotga tayanish: dalil markazda	Ma’lumot savodxonligini rivojlantirish	Manba tanqidi, faktcheking mashqlari
7	Ochiq tizimlilik: kurs yangilanib boradi	“Fundamental tushuncha + joriy keys” modeli	Yadro tushunchalar ro‘yxati + almashinuvchi keyslar

Global jarayonlar geografiyasining o‘quv predmeti sifatidagi xususiyatlarini yakuniy tarzda umumlashtirganda, u uch asosiy funksiyani bajarishini ko‘rish mumkin. Birinchisi, kognitiv funksiya: dunyo va mintaqalar haqidagi bilimlarni tizimlashtiradi, global o‘zgarishlarning makoniy manzarasini beradi, asosiy tushunchalar va nazariyalar bilan qurollantiradi. Ikkinchisi, metodologik funksiya: xarita, ma’lumot, indikator, GIS va tahlil usullari orqali ilmiy ishlashni o‘rgatadi, manbalarni tanqidiy baholash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Uchinchi, qadriyat va fuqarolik funksiyasi: barqaror rivojlanish, ekologik mas’uliyat, ijtimoiy adolat, global hamkorlik va milliy manfaat uyg‘unligi kabi masalalarda ongli pozitsiya shakllantiradi. O‘zbekiston ilmiy-adabiy an’analarida geografiya ta’limi doimo “tabiat–jamiyat” munosabatlarini kompleks tushuntirishga intilgani bois, global jarayonlar geografiyasi bu an’anani zamonaviy muammolar va real voqealar bilan boyitadi; xususan, orol bo‘yi ekologik inqirozi kabi milliy tajribalar[22][40] global ekologik diskurs bilan integratsiyada o‘qitilishi mumkin.

Shu tariqa, “global jarayonlar geografiyasi” tushunchasi mohiyatan transchegaraviy oqimlar va tizimli o‘zaro ta’sirlar geografiyasidir; u makoniy tarqalish, miqyoslararo bog‘liqlik va hududiy notekislikni izohlaydi, nazariy modellarni real voqealar bilan sinab ko‘rishga undaydi. O‘quv predmeti sifatida esa u dinamik, muammoviy, integrativ, ma’lumotga tayanadigan va ko‘p perspektivali ta’limni talab qiladi. Aynan shu xususiyatlari tufayli global jarayonlar geografiyasi real voqealar asosida tahliliy darslar tashkil etish metodikasiga mustahkam ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi: talaba voqeani makoniy

ko‘radi, sabab-oqibatni tizimli tushunadi, dalilga tayangan xulosa chiqaradi va barqaror rivojlanish nuqtayi nazaridan baholay oladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, global jarayonlar geografiyasini o‘qitishning zamonaviy metodologik negizi tizimli, integrativ, kompetensiyaviy va muammoli-tadqiqiy yondashuvlarning uyg‘unlashuvidan iborat bo‘lib, bu yondashuvlarning barchasi, oxir-oqibat, o‘quvchini nazariy bilim bilan real hayotiy vaziyat o‘rtasidagi ko‘prikni mustaqil qura olish ko‘nikmasiga yo‘naltiradi. Ana shu ko‘prikni qurishning eng samarali vositalaridan biri sifatida keyingi bo‘limda ko‘rib chiqiladigan real voqealar (case-study) va mediapedagogika materiallari alohida ahamiyat kasb etadi. Real voqealar asosida o‘qitishning nazariy-pedagogik asoslaridan yana biri-o‘qitish va baholashning formatif (rivojlantiruvchi) yondashuvini kuchaytirishdir. Tahliliy darslarda o‘quvchi yakuniy to‘g‘ri javobdan ko‘ra, tahlil jarayonining sifatiga ko‘proq ehtiyoj sezadi: savol qo‘yish, faraz ilgari surish, dalil tanlash, mantiqiy xulosa chiqarish, qarama-qarshi dalillarni rad etish yoki qabul qilish. Shuning uchun o‘qituvchi baholash mezonlarini (rubrikalar) oldindan aniq belgilashi, jarayon davomida fikr-mulohaza (feedback) berishi, o‘quvchiga o‘z ishini qayta ko‘rib chiqish imkonini yaratishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullayeva D.N. Geografiya ta’limida zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2022. — 118 b.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2006. — 160 b.
3. Axmedjanov M.M., Xo‘jayev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat. — Toshkent, 2008.
4. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
5. Ro‘ziyev N.M. Geografiya fanini o‘qitishda geoaxborot tizimlaridan foydalanish. — Toshkent, 2020.
6. Qurbonniyazov R. Geografiya o‘qitish metodikasi. --- Urganch, 2001.
7. Vaxobov H. Geografiya ta’limi metodikasi. --- Toshkent, 2007.
8. Баранский Н.Н. Методика преподавания экономической географии. — М.: Просвещение, 1990. — 303 с.
9. Максаковский В.П. Географическая картина мира. В 2 кн. — М.: Дрофа, 2008.
10. Максаковский В.П. Преподавание географии в зарубежной школе. — М.: ВЛАДОС, 2001. — 368 с.

GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Axmadaliyeva Qizlarxon Maxmudovna
Oltiariq tumani 26- umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada geografiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida o‘qitish hamda muammoli ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, ushbu texnologiyalarning o‘quvchilarda geografik bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar geografiya ta’limi sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *geografiya ta’limi, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuv, loyiha metodi, muammoli ta’lim, innovatsion ta’lim.*